

**HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATNING HUQUQIY TARBIYA  
JARAYONI BILAN UYG‘UNLIGI****Kenjayeva Sevinch Shamsiddin qizi***Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti  
Milliy g‘oya manaviyat asoslari va huquq talini yo‘nalishi 3-bosqich talabasi***Nigmanova Umida Bahramovna***Ilmiy rahbar: Nizomiy nomidagi TDPU Ma‘naviyat asoslari va huquq ta‘limi kafedrası  
Dotsenti Pedagogika fanlari falsafa doktori*

**Annotasiya:** *Ushbu maqolada mamlakatimizda shaxslarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda huquqiy ta‘lim-tarbiyaning o‘rnini oshirishga doir chora-tadbirlarning qay darajada olib borilayotganligi hamda yoshlarni insonparvarlik, milliy istiqlol g‘oyasi va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ustuvor vazifa ekanligi borasida so‘z yuritiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *huquqiy ta‘lim, huquqiy tarbiya, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy bilim.*

Barchamizga ma‘lumki, yoshlarni huquqiy tarbiyalash huquqiy davlat qurish va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarni insonparvarlik, vatanparvarlik va milliy istiqlol g‘oyasi ruhida tarbiyalashda hamda huquqiy bilimlarini oshirishda huquqiy ta‘lim asosiy rol o‘ynaydi. Yoshlarga huquqiy ta‘lim berishda va tarbiyalashda biz uchun qadrlil bo‘lgan milliy urf-odatlarimiz, an‘analarimiz, o‘chmas merosimizga mehr-muhabbat, ularga sodiqlik ruhini shakllanitira olsak, har birimiz uchun ijobiy natija bajarayotgan ishlarimizning mahsuli ekanligi bilinadi. Huquqiy ta‘lim-tarbiya boshqa turdagi tarbiya bilan o‘zaro yaqin.

Shaxsning ongli ijtimoiy-huquqiy faoliyati, ya‘ni qonun ustuvorligini va qonuniylikni mustahkamlash maqsadida uning huquqiy bilimlardan foydalanishi ommaviy madaniyatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadigan huquqiy madaniyatning eng yuqori ifodasidir. Shaxsning tabiiy va boshqa huquq va erkinliklarining kengligi va haqiqiy kafolati huquqiy madaniyatning o‘ziga xos birinchi va muhim belgilaridan biridir.

Axloq normalari bilan huquqiy normalar bir biriga juda yaqin turadi. Shaxs axloqsiz bo‘lsa, u qonunlar talabiga rioya qilmaydi. Binobarin, bunday shaxsni huquqiy tarbiyalash samarasiz bo‘ladi, hatto jazo choralarini ham to‘g‘ri yo‘lga solish qiyin.

Huquqiy ta‘lim-tarbiya tizimi uch tarkibiy qismdan tashkil topadi:

- davlat belgilangan qonun qoidalarini o‘qitish;
- ularni jamiyat a‘zolari o‘rtasida tashfiqot qilish;
- o‘quvchi yoshlarni qonun qoidalar ijrosida bevosita ishtirok etishga o‘rgatish.

Huquqiy ta‘lim-tarbiya jarayoni shaxsning bolalik davridan yetuklik davrigacha bo‘lgan tarbiyaviy jarayonni o‘z ichiga qamrab oladi. Bu jarayon davomida shaxs oilada, maktabgacha ta‘lim muassasalarida, maktabda, maktabdan tashqari ta‘lim muassasalarida, oliy ta‘limda, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limida, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash idoralarida huquqiy ta‘lim-tarbiya jarayonini o‘z ichiga oladi. Demak, huquqiy ta‘lim-tarbiya bosqichma-

bosqich berilishi maqsadga muvofiqdir. Bosqichli huquqiy ta'lim-tarbiya berishdan ko'zlangan maqsad yoshlarning huquqiy bilim va ko'nikmalarini tarkib toptirishni uzluksiz ta'minlashdir.

Huquqiy ta'limning oldiga qo'yilgan umumiy vazifa shaxsga qonunlarni va unga amal qilish yo'llarini o'rgatish. Huquqiy ta'limning yuridik vazifasi shaxsda muayyan holatlarda zarur huquqiy normalarni qo'llay olish qobiliyatini tarbiyalashdir.

Huquqiy ta'lim-tarbiyaning muhim vazifalaridan biri shaxsda huquq normalarini o'rganishga ehtiyoj uyg'otish, yani o'zini mustaqil ravishda huquqiy tarbiyalashga odatlantirishdir. Huquqiy normalarga hurmat ruhida tarbiyalangan shaxs qonun-qoidalarga muntazam ravishda o'rganib boradi va boshqalarni ham shunday qilishga da'vat etadi. Huquqiy ta'lim-tarbiya tarbiyalanuvchilarning xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatuvchi, ularni tartib doirasida tutish uchun asos bo'la oladigan bilim berishdir. Lekin tarbiyachi faqat bilim beribgina qolmasdan, tarbiyalanuvchilarga har xil shaklda ta'sir ham o'tkazishi kerak. Huquqiy ta'lim-tarbiyaning shakllari asosida davlat organlari, jamoat tashkilotlari, professor-o'qituvchilarining olib borgan ishlarining tashqi ko'rinishidagi ta'sir yo'li, ta'sir etish usullari yotibdi.

Huquqiy ta'lim-tarbiya shakllari quyidagicha bo'lishi mumkin:

- huquqiy bilim;
- huquqiy tashviqot;
- jamoatchilik tomonidan olib boriladigan ishlar;
- huquqni himoya qiladigan davlat organlarining ishlari bilan tanishish (tergov, sud jarayonlarida qatnashish);
- xalq deputatlarini nomzodlikka tavsiya qilish majlislarida, mahalliy hokimiyatlar qoshidagi voyaga yetmaganlar komissiyalari ishlarida ishtirok etish.

Huquqiy madaniyat - bu shunchaki u yoki bu munosabat emas, balki avvalo uning me'yorlariga hurmat bilan munosabatda bo'lish. Huquqiy madaniyat jamiyatda mavjud bo'lgan baho va g'oyalarni ifodalovchi va huquqiy sohaga nisbatan ma'lum unid va istaklarni shakllantiruvchi tanqidni ifoda etuvchi, ular bilan chambarchas bog'liq va doimiy aloqada bo'ladi. Shaxsning huquqiy madaniyati jamiyat huquqiy madaniyatining tarkibiy qismi va unga bog'liq bo'lgan qadriyat bo'lib, u yoki bu tarzda shaxsning qonuniy faolligini ta'minlaydigan uning progressiv rivojlanish darajasi va xususiyatini aks ettiradi. Bu shaxsning bilimi va uning huquqiy ongiga bog'liq. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, huquqiy ta'lim-tarbiyali bo'lish uchun shaxs birinchi navbatda yuksak darajadagi huquqiy ong va huquqiy madaniyatli bo'lishi lozim.

Huquqiy ta'lim uzluksiz bo'lib, yoshlikdan boshlab berib borilishi lozim. Bolalar maktabgacha tarbiya muassasalaridayoq xulq-atvor qoidalaridan xabardor bo'lishi, ma'naviy va ba'zi huquqiy normalar to'g'risida boshlang'ich tushunchalar olishi, kelgusida o'quv davomida bu bilimlar kengaytirilishi va chuqurlashtirilishi, aniq ifodalangan huquqiy xususiyat kasb etishi zarur.

O'ylashimcha, aholining huquqiy tarbiyasi va ta'limini takomillashtirishga ta'lim va tarbiyaning hali foydalanilmagan mexanizmlarini yaratish, ulardan samarali foydalanish, tarbiya va ta'limning yangi shakllari va vositalarini joriy etish, moddiy-texnika negizini kuchaytirish yo'li bilan erishiladi. Xalqni huquq sohasida madaniyatli qilishning yana bir tomoni Oliy Yuridik ma'lumotli kadrlarni sonini ko'paytirish va sifatini oshirish. Buning

uchun Oliy Yuridik ta'lim beruvchi ta'lim muassasalarini sonini ko'paytirish, yetuk malakali huquqshunos kadrlarni tayyorlash. Shu o'rinda Abu Nasr Farobiyning fikrlarini esga olaylik. Mashhur faylasuf har bir mansabdor shaxs qonunlarni chuqur o'rganishi, ularga rioya qilishda shaxsan namuna bo'lishi, aholi o'rtasida qonunlarni keng targ'ib qilish, uni takomillashtirish bo'yicha takliflar kirita bilishi, joiz bo'lsa, qonun yoza olishi shartligini ilgari surgan. Ayni shu mezonlardan kelib chiqib Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2019- yildagi farmonlarida fuqarolar ongida "Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish- demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!",- degan hayotiy g'oyani mustahkamlash, aholiga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining mazmuni va mohiyatini izchil yetkazish tizimini shakllantirish birlamchi vazifalardan etib belgilandi.

Mustaqillik yillarida o'sib kelayotgan yosh avlodni intellektual boylik yarata oladigan qilib tarbiyalashga e'tibor qaratilib, bu borada yurtboshimizning: "Biz farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lom o'sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo'lgan, uyg'un rivojlangan insonlar bo'lib, XXI asr talablariga to'liq javob beradigan barkamol avlod bo'lib voyaga yetishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz", - degan fikrlari juda o'rinlidir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, jamiyatda huquqiy madaniyatning shakllanganligi yoshlarning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'rni, maqsadlarni boshqarishdagi ishtiroki va mas'uliyati, yangiliklarga daxldorlik tuyg'usining o'zgarishi jamiyat, huquqiy davlat ravnaqi uchun qarorlar qabul qilish jarayonida ularning faollik darajasini belgilaydi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.M.Mirziyoyev 2019-yil 9-yanvar "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5618-10-son Farmoni.
2. Odilqoriyev X.T Davlat va huquq nazariyasi(darslik). - T.: "Adolat"-2018, 287-b
3. Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya soslari fanidan o'quv uslubiy majmua - Guliston -2021. D.Xolnazarova, N.Saidqulov, M.Botirov
4. CENTRAL ASIAN ACADEMIC JOURNAL „Huquqiy madaniyat tushunchasini vujudga kelishi va rivojlantirishning asosiy vositalari". R. B. Hojiyev U. I. Muzaffarov.
5. Kudaybergenova T.K. «O'rta maxsus o'quv yurtlarida huquqiy ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari».-Metodik qo'llanma, T-2011.
6. www.tdpu.uz